



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SALBIY EKSPRESSIV BIRLIKLARNI O'QITISHNING KOGNITIV-LINGVODIDAKTIK MODEL

**Mualliflar:** Turg'unov Shuxratjon Nozimjon o'g'li<sup>1</sup>, Shavkatova Nozima Farruxovna<sup>2</sup>

**Affiliyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi<sup>1</sup>, Xalqaro Nordik universiteti, 3-bosqich talabasi<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20000603>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida salbiy ekspressiv birliklarni o'qitish jarayonining zamonaviy yondashuvlari, pedagogik va lingvodidaktik asoslari, shuningdek, gender va madaniyat omillarining roliga bag'ishlangan ilmiy tahlillar keltiriladi. Tadqiqotda salbiy ekspressiv birliklarning pragmatik, emotsional va sotsiolingvistik mohiyati, ularning o'qitish jarayonida talaba tafakkuriga va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, kognitiv model va madaniyatlararo o'rganish muhitlari orqali bu birliklarni samarali o'rgatish usullari tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** salbiy ekspressivlik, madaniyatlararo kommunikatsiya, gender tilshunosligi, kognitiv yondashuv, raqamli ta'lim, lingvodidaktika, sotsiolingvistika.

### KIRISH

Bugungi globallashtirish sharoitida til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong va hissiy tafakkurning ko'zgu-siga aylandi. Shu jihatdan salbiy ekspressiv birliklar haqorat, istehzo, tanqid, kinoya, sarkazm, kinoya va norozilik ifodalovchi vositalar tildagi emotsional boylikning muhim qismidir (Wierzbicka, 1999). Bu birliklar nafaqat ma'no jihatidan, balki nutqdagi ijtimoiy maqom, psixologik holat va madaniy tafakkur darajasini ham aks ettiradi.

Salbiy ekspressivlikni o'rganish va o'qitish ayniqsa yosh avlodning nutq madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy muomala madaniyatini rivojlantirish, va madaniyatlararo xulq me'yorlarini anglash uchun alohida ahamiyatga ega (Samigova, 2022). Chunki salbiy ekspressiv birliklar orqali nafaqat hissiy holatlar ifodalanadi, balki ma'lum ijtimoiy kodlar, irodaviy munosabat va gender stereotiplari ham ifodalanadi (Turgunov, 2025).

Tilshunoslikdagi so'nggi tendensiyalar, xususan sotsiolingvistika va kognitiv tilshunoslik yo'nalishlari, bu birliklarni "nutq aktining ijtimoiy ko'rinishi" sifatida tahlil qiladi. Zamonaviy global til muhiti esa salbiy ekspressivlikni yanada murakkablashtirdi ijtimoiy tarmoqlarda, onlayn muloqotda va memetik madaniyatda ularning yangi shakllari yuzaga keldi. Bu holat o'qituvchilardan zamonaviy lingvodidaktik yondashuvni, emotsional savodxonlikni va madaniyatlararo sezgirlikni talab qiladi.

## TADQIQOT USULLARI VA MATERIALLARI

Tadqiqot kognitiv, sotsiolingvistik, pragmatik va qiyosiy-tahliliy usullarga asoslangan bo'lib, material sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi haqoratli, kinoyali va istehzoli birliklar tanlandi. Asosiy manbalar sifatida COCA (Corpus of Contemporary American English), British National Corpus, hamda UzbekCorpus ma'lumotlar bazalari tahlil qilindi.

Shuningdek, talabalar bilan o'tkazilgan kichik tajriba mashg'ulotlarida ularning salbiy ekspressivlikni qabul qilish darajasi, genderga ko'ra reaksiya farqlari va madaniy moslashuv ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalar tahlilida statistik kuzatuv, kontekstual tahlil, hamda lingvomadaniy interpretatsiya usullari qo'llandi.

Nazariy asos sifatida quyidagi manbalarga tayanildi: A. Wierzbicka (2006) "Cultural scripts" konsepsiyasi; J. Holmes (2013) "Politeness and gendered discourse"; X. Samigova (2021) "Genderlingvistika va nutq etiketi"; va S. Turgunov (2025) "Sociolinguistic Effects of Globalization: Change and Spread of Negative Expressiveness".

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, salbiy ekspressiv birliklarni o'qitishda o'quvchilar ko'pincha ularning denotativ ma'nosini tushunadi, biroq konnotativ (emotsional, ijtimoiy) jihatlarini anglashda qiynaladi. Masalan, ingliz tilidagi "You're impossible!" iborasi grammatik jihatdan neytral bo'lsa-da, kontekstdan kelib chiqib, kinoya, tanbeh yoki yoqimli istehzo sifatida qabul qilinadi. O'zbek tilida esa bu "Senga gap yo'q!" tarzida ifodalanib, so'zlovchi niyatiga qarab maqtov yoki tanqid ma'nosini oladi.

Bu holat pedagogik yondashuv zarurligini ko'rsatadi o'qituvchi talabalarga ekspressiv birlikning semantik, pragmatik va sotsial kontekstini tahlil qilishni o'rgatishi lozim (Crystal, 2020). O'qituvchi so'zning "yuzaki ma'nosi" bilan "nutqdagi haqiqiy niyat" o'rtasidagi farqni kontekstual misollar orqali ochib beradi.

Gender omili ham bu jarayonda katta ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ayollar ekspressiv birliklarni yumshoq, ko'proq bilvosita shakllarda ifodalaydi, erkaklar esa ochiq va kuchli baholovchi birliklarni ishlatadi (Lakoff, 1975; Samigova, 2021). Ingliz tilida "Oh, great!" iborasi ayollar nutqida kinoya shaklida, erkaklarda esa ko'proq befarqlik yoki sarkazm ma'nosida ishlatilgan. O'zbek tilida esa "Zo'r-da!" shakli o'xshash kommunikativ yuklamani beradi.

Madaniy kontekst esa bu birliklarning qabul qilinishida hal qiluvchi omildir. G'arb tillarida salbiy ekspressivlik ko'proq "nutq erkinligi" tamoyiliga asoslangan bo'lsa, Sharq madaniyatlarida u ijtimoiy hurmat va jamoaviy qadriyatlarga bo'ysunadi (Wierzbicka, 2006). Shu sababli, o'qitish jarayonida madaniyatlararo qiyosiy tahlil asosida ekspressiv birliklarning o'zaro mos yoki nomos jihatlarini yoritilishi zarur.

Masalan, ingliz tilida "Get lost!" kabi ifoda norozilikni bildirsa-da, o'zbek tilida bu ifoda to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmaydi, balki "Men hozir tinchlik istayapman" kabi yumshoqroq shakl tanlanadi. Bu lingvomadaniy filtrlash jarayonini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Turgunov (2025) o'z tadqiqotida salbiy ekspressivlikning global tarqalishini "madaniy diffuziya" jarayoni sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, internet, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tilidagi haqorat va istehzo shakllari o'zbek tiliga ham kirib kelmoqda. Masalan, "loser", "stupid", "idiot" kabi birliklarning to'g'ridan-to'g'ri kalkalash yoki fonetik moslashuv holatlari

kuzatilmoqda. Shu sababli, o'qitishda talabalarga bu birliklarning semantik og'irligi va madaniy oqibatlarini tushuntirish zarur.

O'qitishda lingvodidaktik modellar "context-based learning", "role-play simulation", "digital corpus-based analysis" o'zini samarali ko'rsatgan. O'qituvchi real muloqotdan olingan misollar asosida ekspressivlikni muhokama qiladi, talabalar esa muayyan kontekstdan chiqmagan holda o'z ifodalarini ishlab chiqadi (Richards, 2020). Shu tarzda talabalar faqat tilni o'rganmaydi, balki "nutq etikasini", "madaniy moslashuvni" va "emotsional tahlil"ni ham o'zlashtiradi.

Globalashuv sharoitida salbiy ekspressivlikni o'qitish nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik jarayon hamdir. Turgunov (2025) qayd etganidek, "til orqali hissiy negativlikning tarqalishi" bu ijtimoiy ongda yangi kommunikativ model paydo bo'layotganidan dalolat beradi. Shu sababli, o'qituvchi talabalarga nafaqat so'z ma'nosini, balki nutqning ijtimoiy oqibatlarini anglashni o'rgatishi zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kognitiv-emotsional yondashuv talabalar tomonidan eng samarali deb topilgan. Bu yondashuv hissiy reaksiya va tafakkurni uyg'unlashtiradi, natijada o'quvchilar salbiy ekspressiv birliklarni kontekst, intonatsiya va kommunikativ niyat bilan bog'lay oladilar.

## XULOSA

Salbiy ekspressiv birliklarni o'qitish zamonaviy tilshunoslikda ko'p yo'nalishli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. Salbiy ekspressivlikni o'qitishda kontekstual tahlil va madaniyatlararo taqqoslash muhim;
2. Gender farqlari o'quvchilarning ekspressiv birliklarga bo'lgan reaksiya va qabul qilish mexanizmini belgilaydi;
3. Globalashuv jarayoni natijasida inglizcha ekspressiv birliklar o'zbek nutqiga kirib kelmoqda, bu esa o'qitishda ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi;
4. Raqamli korpuslar va AI yordamida o'qitish vositalari salbiy ekspressivlikni real muloqot asosida tahlil qilish imkonini beradi;
5. O'qitishning kognitiv-emotsional modeli hissiy tafakkur va pragmatik sezgirlikni birlashtirib, eng samarali natija beradi.

Shunday qilib, salbiy ekspressivlikni o'qitish bu lingvistik bilimdan tashqari madaniy, emotsional va sotsial kompetensiyani shakllantiruvchi murakkab jarayon bo'lib, u til ta'limining insonparvarlik va kommunikativ samaradorligini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crystal, D. (2020). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.
2. Holmes, J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics*. Routledge.
3. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. Harper & Row.
4. Richards, J. (2020). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Samigova, X. (2022). Salbiy ekspressiv birliklarning ijtimoiy-lingvistik tahlili. *Til va jamiyat jurnali*, 2(1), 45–53.
6. Turgunov, Sh. (2023). *The Lexico-Semantic Field of Negative Emotions in English: A Cognitive Perspective*. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 1(4), 91–94.

7. Turgunov, S. (2025). *Sociolinguistic Effects of Globalization: Change and Spread of Negative Expressiveness. International Journal of Artificial Intelligence*, 1(4), 1230–1233.

8. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions Across Languages and Cultures*. Cambridge University Press.

9. Wierzbicka, A. (2006). *English: Meaning and Culture*. Oxford University Press.

10. PF-60. (2022). *Raqamli iqtisodiyot va ta'limda innovatsiyalarni rivojlantirish to'g'risida Prezident farmoni*.

